

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

9.2021

научно-теоритический методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2021

Шарифзода Сардорбек Ёрозбой табиб ўғли. Ўқувчиларда таянч компетенцияларни шакллантиришда интегратив технологиялардан фойдаланиш имкониятлари.....	102
Жуманазаров Умид Умрзокович. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари нутқ компетенциясининг лисоний вазибалари.....	105
Умаров Абдуманнон Абдуллаевич. Мултимедиа технологияларини ўргатувчи педагогик дастурий воситалари.....	108
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, Авазов Жўрабек Доншевч. Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда фанлараро алоқалардан фойдаланишнинг баъзи жиҳатлари.....	110
Агаджонова Динора. Имоми Аъзам Абу Ҳанифанинг маънавий-ахлоқий тарбияга оид педагогик қарашлари эволюцияси.....	114
Даукаева Халида Ибраҳимовна. Принципы отбора и использования аутентичных материалов на уроках иностранного языка.....	116
Мирбобоева Дилфуза Бахтиеровна. Преимущества использования изучаемого языка как основного на уроках иностранного языка.....	119
Машарипов Фарход Турахонович. Дифференцированный и индивидуализированный подходы в системе физического воспитания студентов вузов.....	121
Khujayeva Sayyora Sotimboyevna. Teaching grammar to B1 learners. Teaching Tasks and Exercises on Grammar.....	124
Nizamova Umida Sandjarovna. Improvement of Communicative Competence in Teaching Foreign Language for Professional Purposes.....	127

ILMIY AXBOROT

Сохибов Салоҳиддин Анвар ўғли. Коррупциянинг тарихий иллизлари ва унга қарши курашда ривожланган давлатлар тажрибаси.....	131
Davletov Rasulbek Marimbayevich, Saidova Maryam Egamberganovna. Inersiya momentini aniqlash jarayonini modellashtirish.....	134
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Salohiy Siddiqa Laziz qizi. Mantiqiy amallarni bajarish jarayoni uchun interaktiv dasturiy ta'minot loyihasi.....	137
Эшпўлатов Бобир Худойбердиевич, Дауманазарова Нафиса Мустафоқуловна, Караматов Болатбек Тинчбекович. Умар Хайёмнинг математикага доир айрим ишлари хусусида.....	140
Махмудов Рауфjon Ваходирович. Ogahiy tarixiy asarlarida xorazmiy va so'g'd tili elementlari.....	144
Самшова Хушнуда, Машхура Хусанова. Диний-тасаввуфий нутқ бирликларининг инсон руҳиятига таъсири.....	149
Матақубова Озода Машариповна. Француз тилида гап таркибли фразеологик бирликларнинг морфологик хусусиятлари.....	152
Valieva Noiba Abbasxonovna. Xitoy tilida "baxt" konseptining komponent tahlili.....	155
Аширбаева Дилором Равшановна. Корейс ва ўзбек тилларида антропоним мурожаатлар ва уларнинг таржимада берилиши.....	159
Нуриддинов Нозир Нурмат ўғли. Форс тилида интерфикслар орқали ясалган копулятив қўшма сўзлар.....	164
Наудагов Анвар Аскарovich, Ruziyeva Nafisa Zarifovna. Evfemizmlarning semantik va struktur tahlili.....	168
Қазимбетова Зийўар Махсетбаевна. Ж.Избасканов поэзиясида метонимияларнинг услубий қўлланиши.....	171
Хасанова Шахноза Абдурауповна. Дипломатик ибораларнинг хусусиятлари ва таржимадаги ўрнини.....	176
Karimova Faroxat Sattarbergan qizi. Ingliz va o'zbek allalarining leksik qatlami.....	178
Қурбонова Гулсара Содиковна. Бадий матн таржимасининг баъзи бир муаммолари.....	181
Гафуров Бахтиёр Закирович. Неологизмы в сфере медицины как объект изучения рекламного текста.....	185
Каландарова Гульбахор Нуруллаевна. Основные способы освоения орфографических вариантов тюркской лексики (каракалпакизмов).....	187
Попов Дмитрий Владимирович. О концепте и других ментальных конструкциях.....	189
Gulyamova Ozodaxon Shavkatovna. The Concept and Typology of the Category of Intensity.....	192
Mamatkulova Bakhtijon Ravshanovna. General Laws of ... Toponimu.....	194

“Фақат бир нарсани аниқ биларди ва айтарди: Дунёда бир ҳақиқатдан бошқаси мавжуд эмас ва у менинг лиммо-лим қадахимдир”.

Форс тилида *be*, *tā*, *dar* ва *bar* интерфикслари орқали ясалган копулятив қўшма сўзлар таҳлили қуйидаги хулосаларга олиб келди:

1. Манбалардан тўпланган копулятив қўшма сўзлар (102 та), асосан, *be* (71 та), *bar* (8 та), *dar* (14 та), *tā* (9 та) каби интерфикслар орқали ясашиши аниқланди. Тўпланган мисоллар таҳлили копулятив қўшма сўзлар ясашишида *be* интерфиксининг сермахсул (71 та) эканини кўрсатди.

2. Манбалардан тўпланган мисоллар таҳлилидан *bar* ва *dar*, *dar* ва *be*, *tā* ва *be*, *be* ва *tā*, *be* ва *bar* интерфиксларининг ўзаро синонимик қаторни ташкил этиши маълум бўлди. Жами бешта синонимик қатор аниқланиб, ўзаро синонимик қаторни ташкил қилувчи интерфикслар орасида *be* ва *dar* интерфиксларининг сермахсуллиги кузатилади. Баъзи истисноларни ҳисобга олмаган ҳолда КҚСлар таркибидаги интерфиксининг алмашиши билан қўшма сўзнинг маъноси ўзгармаслиги аниқланди.

3. Таржима лугатларда қайд этилган битта копулятив қўшма сўзнинг (*لا بِلَا lābelā* = *لا بِلَا lābarlā* “кўп қатлами”, “кўп қатли”) маъноси манбалардан тўпланган мисоллар таркибида кузатилмади. Шунингдек, иккита КҚСнинг *سَر بَه sarbesar* “тенг”, “ора очик”, *دست بَه دست dastbedast* “бирин-кетин”, “тўхтовсиз”) таржима лугатларда қайд этилмаган янги маънолари ҳам аниқланди.

Haydarov Anvar Askarovich (BuxDU), Ruziyeva Nafisa Zarifovna (BuxDU)
EVFEMIZMLARNING SEMANTIK VA STRUKTUR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqola evfemizmlarning qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida semantik va struktur tahlili masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada evfemizmlarning lisoniy va nutqiy jihatlariga ham e'tibor qaratiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы семантического и структурного анализа эвфемизмов в несестринском английском и узбекском языках. В статье также рассматриваются лингвистические и вербальные аспекты эвфемизмов.

Annotation. This article deals with the issues of semantic and structural analysis of euphemisms in non-sister English and Uzbek languages. The article also focuses on the linguistic and verbal aspects of euphemisms.

Kalit so'zlar: tabu, evfemizm, struktur, semantik, nutqiy, lisoniy, qo'pol so'zlar, yumshatilgan so'zlar, nutq jozibadorligi.

Ключевые слова: табу, эвфемизм, структурный, смысловой, речевой, лингвистический, грубые слова, мягкие слова, речевого обращение.

Key words: taboo, euphemism, structural, semantic, speech, linguistic, rude words, soft words, speech appeal.

Jamiyat taraqqiyoti – iqtisodiyot, siyosat va madaniyatning yuksalishi til rivojiga ma'lum darajada ta'sir qiladi, kishilardagi yuksak darajada fikrlash, nozik did va etikaviy muomalani talab qiladi. Bu jaryon nutq madaniyatining taraqqiyoti, nutq vositalarining, ya'ni tildagi mavjud lug'aviy birliklarning ma'no darjasi, ularda ifodalangan nozik jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtay nazardan, tilda mavjud evfemizmlar evfemik nutq taraqqiyotining yangi shakllanish asoslarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Tilshunoslikda evfemizm hodisasi XX asrdan boshlab o'rganish obyektiga aylangan bo'lib, unga turlicha ta'riflar berilgan, har bir ta'rif albatta ushbu hodisaga bo'lgan munosabatni va ushbu hodisaning tildagi funksiyasini belgilab beradi. Evfemizmlar tilda so'zlovchi va tinglovchi uchun noxush bo'lgan tushuncha va so'zlarni yumshatish “haqiqatni niqoblash” kabi funksiyalarni bajaradi.¹ Ushbu hodisaga A. Hojiyev quyidagicha ta'rif beradi: “Narsa-hodisaning ancha yumshoq formadagi ifodasi: qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'mida qo'pol botmaydigan so'z, iborani qo'llash.”²

Evfemizm hodisasi to'g'risida jahon tilshunosligida dastlabki fikrlar J.Vandries, L.A.Bulaxovskiy tomonidan bildirilgan A.A.Reformatskiy esa tabu ostida qo'llaniladigan evfemik birliklarni etnik taraqqi-

¹ G'aybullayeva N. Evfemizmlarning o'rganilishiga doir. Tilshunoslik va metodika masalalari. T., “Muharrir”, 2019, 197–200-betlar.

² Хожиев А.П. Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати. Т., “Ўқитувчи”, 1985, 109-бет.

yot bilan bog'liq, deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo'lishiga turli bid'at va xurofotlar sabab bo'lganligini e'tirof etib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi.¹

Hozirgi davr tilshunoslari oldiga evfemizmlarni nutqiy qatlam sifatida bir butun holda sistemali o'rganishni, uning barcha nutqiy imkoniyatlarini ochish, semantik – strukturaviy xususiyatlarini yoritib berishni aniq vazifa qilib belgilab berdi. Shu nuqtayi nazardan, biz ushbu maqolamizda ingliz va o'zbek tillarida evfemizmlarning chog'ishtirma struktur-semantik tahlilini badiiy asarlardan olingan misollar asosida ochib berishga harakat qilamiz.

Kuzatishlarimiz evfemik nutqni quyidagicha tasniflashga imkon berdi:

1. Voqelikning tabulashish darajasiga ko'ra:

a) nomini aytib bo'lmaydigan, aytish man etilgan, pornografik tushunchalar bilan bog'liq evfemalar. Masalan, "jalab" tushunchasini ifodalash uchun o'zbekcha va inglizcha evfemalarni quyidagi misollar asosida ko'rish mumkin:

–O'g'lim, bunaqa behayo qiz ekan, vaqtida bilib, o'zingizni chetga olganingiz yaxshi bo'libdi (Mirmuhsin).

–Mahallamizda bitta suyuqoyoq chiqibdi-da (Mirmuhsin).

–U kimsaning qulog'iga shivirlaydi xotining halol emas (Abdulla Qahhor).

–Chunki u eriga vafosizlik qilgan, yomon yo'llarga yurgan (R.Uzoqova).

–It's entirely populated by crooks stock – exchange jugglers, corrupt policeman and ...ladies of easy-virtue (G.Lindsay).

–She was a light woman whom nobody respected (G.Lindsay).

2. Qo'rqinch, sovuq, noxush xabar yoki o'lim bilan bog'liq evfemalar.

– Beginning jasadi o'zi qurdirgan Mirzo Humoyun maqbarasining o'ng qanotida dafn etildi (P.Qodirov).

– Yoshim yigirma yettiga kirdi, hamon o'g'ilga zorman, bir emas, ikki o'g'ilni qabrga qo'ydim (P.Qodirov).

– Marhumni hokiga topshirib qaytdilar (N.Aminov).

– Patrick Henry has already gone to his long home: Samuel Adam was soon to follow (Ch.Beard and M.Beard).

– He did not talk to them, they had already been told exactly what each of them was to do, and who was to do in case the first-choice man kicked the bucket or was otherwise out (O.Henry).

3. Voqelikning nomini aytish mumkin-u, biroq nutq madaniyatiga mos kelmaydigan tushunchalar bilan bog'liq evfemik hodisalar. Ushbu turga oid evfemalarning qo'llanilish doirasi juda keng bo'lib, ular: a) oila a'zolari nutqida; b) ishxona va jamoat joylarda bo'ladigan muomalada; d) notiqning murojaatlarida, masalan, muhandis farroshga murojaat qilganda "opa", "singlim" kabi so'zlarni ishlatadi (bunda opa, singil so'zlari evfemik voita hisoblanadi). Ingliz tilida esa sanitation engineer, "custodian caretaker" (janitor) o'mida yoki "transparenting wall maintenance officer" o'mida qo'llanilishi misol qilib ko'rsatish mumkin.

Endi evfemizmlarning semantik-grammatik shakllanishiga ko'ra turlariga to'xtalamiz. Ular semantik-grammatik shakllanishiga ko'ra, lisoniy va nutqiy evfemalarga ajratiladi. Ushbu turlarga xos evfemizmlar uzviylik va umumiylik xususiyatlariga ega bo'lishi bilan birga, ayrim farqli jihatlarga ham ega. Lisoniy evfemalar ma'nosi birikma tarkibidagi so'zlarning real ma'nosidagi anglashilmaydigan yaxlit holda bir umumiy tushuncha obrazli ma'no ifodalaydigan vositadir. Evfemaning ushbu tomoni frazema, maqol, matal kabi hodisalarga yondashdir.

Masalan, **hammamiz ham o'lamiz** ma'nosini beruvchi evfemik xususiyatga ega maqolni tahlil qil-sak: Bir uyda necha jonsan, bir-biringga mehmonsan ma'nosida qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan **hammamiz ham o'lamiz** jumlasiga bir-biringga g'animatsan ma'nosini beruvchi bir-biringga mehmonsan bir-biringni qadringni bilsangchi kabi ma'no kelib chiqadi.

Ingliz tilida esa **nogiron** ma'nosini beruvchi frazema tahlil qilinsa, u quyidagi shaklda bo'ladi: **Woman you have gone too far! You are out of your senses!** (D.Carter).

Lisoniy evfemalar lug'aviy birlik, uni lug'atlashtirish mumkin. Masalan: o'lmoq tushunchasini ifodalovchi **bandalikni bajo keltirmoq, halok bo'lmoq, qurbon bo'lmoq, oramizdan ketmoq** kabi evfemalarni lug'atlashtirish mumkin, ular lisoniy evfemalar hisoblanadi.

¹ Реформатский А.А. Введение в языкознание. М., 1967, с. 204.

Nutqiy evfemalar faqat nutq jarayonida sodir bo'ladi, ularni lug'atlashtirish mumkin emas. Masalan: Bu dori Hindistondan kelguncha yigirmasi o'tib, qirqi yaqinlashmog'i aniq edi (G'.G'ulom).

Yuqoridagi misolda o'lmoq ma'nosini beruvchi nutqiy evfemadan yozuvchi foydalangan, shu sabbdan ushbu gapdagi aniq bir so'zni olib, o'lmoq ma'nosini ifodalovchi evfemik so'z va so'z birikmasi deb aytish qiyin.

Lisoniy evfemalar uzoq vatq iste'molda qo'llanilib, uning evfemik ma'nosi matndan tashqari ham anglashiladi va til egasi tomonidan deyarli bir xil tushuniladi. Masalan, vafot etdi (passed away), oyog'i suyuq (a light woman).

Nutqiy evfema asosan kontekstda, nutqiy nutqiy vaziyatda sodir bo'ladi. Nutqiy evfema termini zamirida vaqtinchalik nutqiy jarayonda zaruriyat, muvaqqat tabulashtirish yotadi. Shundan kelib chiqib, shartli ravishda, lisoniy evfemaga nisbatan asliy yoki mutlaq, nutqiy evfemaga esa nisbiy yoki muvaqqat evfema terminlarini qo'llash mumkin. Chunki nutqiy evfemalar gap (kontekst)dan tashqarida so'zning real ma'nosida ham qo'llaniladi. Masalan, U pichoqchilik mahallasiga kirib, jin ko'chaga burilishi bilan domlo eshigi oldida odamlarning qator qo'l qovushtirib turganini ko'rdi (domla o'libdi ma'nosini beruvchi evfemik vositalar (Mirmuhsin).

Ingliz tilida:

-I took the key for the last time out of the door of my father's house (R.Stevenson).

About one year after his wife's death Mr.Pontifex also was gathered to his father (to die) (S. Batler).

Nutqiy evfemalar ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik, originallik darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Chunki ular asar qahramonlari nutqining individualligi tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Humoxonning muhabbati bahorda yoqqan qorga o'xshaydi: bir tomondan, yog'ib, ikkinchi tomondan, erib ketaveradi (A.Muxtor).

-Bir qizga ikki bor yor-yor bo'lmasin (M.Yusuf).

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, evfemalar ta'sirchanligi va bo'yoqdorligi bilan individuallik, ayni vaqtda, okkazonalilik kasb etgan. Tilda evfemik qatlamini shakllantirish roliga ko'ra, ritorik va olmoshli evfemalar alohida ajralib turadi.

Ritorik murojaatni ifodalaydigan gaplar javob talab qilmaydi, javobi o'zidan inkor yoki tasdiq hukm formasida anglashiladi, ularda tantanavorlik bo'lib, emotsional-ekspressivlikni ifodalaydi, shu bilan birga, aytilishi noqulay bo'lgan voqelilarni "yashirin", "yumshoq" holatda yumshoq, poetik usulda bayon etadi. Masalan, -Fayzullo bobo! Sizni nohaq otdilar, qabringiz ham noma'lum hukmiga nisbatan. Qadim Buxoroga laylaklar keldi. O'zingiz qaydasiz, Fayzullo bobo! (M.Yusuf).

-Do we loose him! (He is dead).

-If you didn't take it, whom it can be necessary? (you are thief).

Evfemik ma'no ifodalashda olmoshli gaplar muhim ahamiyatga ega. Bunda olmoshlar ochiq tushunchani emas, balki ularga ishora qiluvchi mavhum belgi ifodalashi sabab ekanligini ta'kidlaydi Sh. Shoabdurahmonov.¹ Olmoshning yana bir o'ziga xos xususiyati, so'zlovchiga noxush, aytilish noqulay bo'lgan, salbiy voqelikni umumiy tarzda yopiq formada, yumshoq, nutqiy odob normasida majoziy bayon etish imkoniyatini beradi. Bunda olmosh tayanch bo'lib xizmat qiladi.

-Ming turli xayollar bag'rim etdi chok.

Lekin men uni qilgim kelmadi halok.

Oh u qanday muhtoj edi onaga.

Uni tashlab ketdim yetimxonaga (Sh.Salimova).

-I saw you did it (to rob).

...he is a good unconscious spy on Brass, and tells in his cups, all that he sees and hears (in one's cups).

Evfemizmlar ifoda vositasiga ko'ra, verbal va noverbal evfemalarga bo'linadi. Nutq jarayonida muayyan vaziyat, talab tabu voqelikni verbal nutq orqali emas, noverbal vositalar orqali ifodalashni taqozo etadi. Yoki evfemik ma'no ifodalashda noverbal vositalar ham tabiiy va zaruriy usullar bo'lib, nutq jarayonida uning komponenti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Noverbal evfemik nutq odatda: a) ixchamlik, tejamkorlik, til iqtisodi; b) kontekst va nutqiy vaziyat talabi qonunlariga asoslanadi. Shuningdek, noverbal evfemik ifoda vositalarini implikativ evfema va kinetik evfema birliklari ostida ham o'rganish mumkin. Implikativ evfema ko'proq kontekstga - yozma

¹ Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., "Ўқитувчи", 1980, 488-бет.

nutqqa asoslanadi. Bu jarayonda presupozitsiya, ellipsiya, intonatsiya, sukut, pauza kabilarga e'tibor beriladi.

Verbal evfema evfemik ma'noni leksik-semantik ko'chimlar, nutqiy figuralar yordamida ifodalasa, noverbal nutq imo-ishora mimika, jestlar, suhbatdoshning harakati maneralari, nutqiy vaziyat va ushbu jarayonlar bilan bog'liq ohang, uning unsurlari – prosodik vositalar bilan ish ko'radi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nutqning bu ikki vositasi bir-biridan butanlay ajratilgan hodisalar emas.

Implisit ifodada gap tuzilishi o'zgaradi: to'liqsizlik, elliptiklashish yuz beradi, shuningdek, gap mazmunida ham o'zgarish bo'ladi.

Masalan, – Odam ham daraxtday gap: o'sadi, unadi, meva beradi, so'ng... (S.Siyoyev).

–Do you remember what I said at that time... (Ch.Dickens).

Kinetik vosita haqida fikr yuritgan A.Nurmonov inson nutqining juda murakkabligini, uning ko'p tomonlarini yozuvda ifodalash imkoniyati yo'qligini e'tirof etib, lingvistik tahlildan chetda qolayotganini, til kartinasini to'la namoyon qilish uchun yordamchi vositalarni o'rganuvchi paralingvistikani fan sifatida talqin qilish va amalda qo'llash zarurligini juda o'rinni izohlaydi.¹

Voqeliklarni ifodalashda hamma vaqt ham verbal evfemik vositalar ish bermaydi, muayyan vaziyatda so'zlovchi yoki tinglovchini qanoatlantirmaydi, noqulay vaziyatdan chiqolmaydi. Bunday hollarda noverbal evfemik vosita (kinetik vosita usuli) yordamga keladi.

Masalan, – General ensasi qotganday lablarini burib, uch barmog'ini ko'rsatdi. – Mirvali ikkita-sini ko'rsatdi. General hamon uchtasini ko'rsatib turardi (Said Ahmad).

–The Doctor verified his heart again but after some minutes he nodded his head (E.O'Conner).

Inglizcha misoldagi **nodded his head** (boshini chayqamoq) kinetik vositasi orqali bemorning o'limiga ishora qilingan. Ingliz tilidagi evfemizmlarni struktur jihatdan tahlil etishda ularni o'zbek tilidan farqli o'laroq, quyidagi guruhlariga ajratadi: a) fonetik jihatdan; b) leksik jihatdan; d) sintaktik jihatdan. Bular haqida navbatdagi ishlarimizda fikr yuritamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, evfemizmlarni semantik-struktur tahlili chog'ishtirilayotgan ingliz va o'zbek tillarida bir-biriga o'xshash, mushtarak jihatlarga, o'z navbatida, farqli jihatlarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Umuman, evfemizlar qaysi tilda bo'lmasin, ular nutq jozibadorligiga xizmat qiladi.

Казимбетова Зийёр Махсетбаевна (Қорақалпоғистон Республикаси,
Нукус шаҳри, Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат университети мустақил тадқиқотчиси)
ЖИЗБАСҚАНОВ ПОЭЗИЯСИДА МЕТОНИМИЯЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ҚЎЛЛАНИШИ

Аннотация. Икки хил тушунча орасидаги ўхшашлик асосида эмас, балки боғлиқлик, алоқа-дорликка асосланган сўз маъносининг кўчиш усули – метонимия тилнинг экспрессивлиги ва бойиб бориши учун ишлатилади. Бу усул поэтика, лексикология, стилистика ва риторикада кенг тарқалган.

Аннотация. В статье рассматривается метонимия как средство переноса значения слова не на основе внешнего сходства, а на основе внутренней связи, её роль в выражении экспрессии и обогащении языка. Метонимия широко распространена в поэтике, лексикологии, стилистике и риторике.

Annotation. The stylistic device, which is based not on the similarity of two objects, but on the connection of them – metonymy is used for the expressiveness and richness of languages. This device is wide spread in poetry, lexicology, stylistics and rhetorics.

Калит сўзлар: троп, услубий восита, метонимия, риторика, стилистика, поэтика, мантиқий маъно, образ ясаш маҳорати, муаллиф гоъси, эстетик функция, шахсий услубий метонимия, иллокутив туйғу, эмфаза.

Ключевые слова: троп, методическое средство, метонимия, риторика, стилистика, поэтика, логическое содержание, мастерство создания образа, авторская идея, эстетическая функция, иллокутивное чувство, эмфаза.

Key words: trope, stylistic device, metonymy, rhetorics, stylistics, poetics, logical meaning, skill of making image, author's idea, aesthetic function, personal stylistic metonymy, illocutive sense, emphases.

¹ Нурмонов А. Тасдиқ ва инкорни паралингвистик воситалар ёрдамида ифодаланиши. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1976, 1, 132-бет.